



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Axmedov Furqat Qo'ldashevich<sup>1</sup>  
Olimov Alisher Isakovich<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Jizzax davlat pedagogika instituti  
e-mail: furkatquldashevich@gmail.com. +998932977799

<sup>2</sup>Jizzax davlat pedagogika instituti  
e-mail: olimovalisher@jspi.uz. +998903116777

## ADABIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASHDA INNOVATSION YONDASHUV VA UNING O'ZIGA XOS JHATLARI

***Annotatsiya.** Maqolada ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning roli va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy bilimlarini oshirish uchun bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda foydalanish uchun zaruriy dasturiy vositalar jumladan maxsus mobil ilovalar yaratishning zaruriyati o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, jismoniy madaniyat o'qituvchilari, innovatsion texnologiya, mobil ilovalar.*

### **НЕОБХОДИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ**

***Аннотация.** В статье исследуется роль инновационных технологий в образовании и необходимость создания специальных мобильных приложений,*

в том числе использование современных мобильных приложений для повышения профессиональных знаний будущих учителей физкультуры.

**Ключевые слова:** образование, учителя физкультуры, инновационные технологии, мобильные приложения.

***THE NEED TO USE MODERN TECHNOLOGIES TO INCREASE  
THE PROFESSIONAL KNOWLEDGE OF FUTURE PHYSICAL  
EDUCATION TEACHERS***

**Annotation.** *The article examines the role of innovative technologies in education and the need to create special mobile applications, including the use of modern mobile applications to enhance the professional knowledge of future physical education teachers.*

**Keywords:** *education. physical culture teachers, innovative technology, mobile applications.*

**Dolzarbliigi:** O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Prezidentimiz Sh. Mirziyoev 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-sonli Farmoni e’lon qilindi. Ushbu farmonda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan [1].

Kontseptsiyada bir qator zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan holda milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish.

Shuningdek ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish nazarda tutilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Bugungi kunda butun dunyoda axborot almashishning qulay vositasi sifatida mobil texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Mobil texnologiyalar turmushimizning turli sohalari, jumladan, ishlab chiqarishda, sanoatda, tibbiyotda va ta'lim jarayonida o'z o'rnini mukammal egallab kelmoqda [3,4].

Shu nuqtai nazardan, oliy o'quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga va ularning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan davlat ta'lim standartlari talablarini amalga oshirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, jumladan, maxsus mobil ilovalar yaratish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga oid o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalari, yangi innovatsion texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash, ixtisoslik fanlaridan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy bilim ko'nikmalarini oshirish uchun o'quv-uslubiy ta'minotlarni yaratish kabi ishlarining yetarli darajada olib borilmayotganligi ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Respublikamiz oliy o'quv yurtlarining jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining bugungi kunda ta'lim olish jarayonlarida eng ko'p va qulay bo'lgan zamonaviy innovatsion texnologiyalar va dasturiy vositalar jumladan mobil ilovalardan foydalanishlarini o'rganib taxlil qilishni maqsad qilganmiz. Shu asosda:


1. Jismoniy madaniyat yo'nalishida kadrlar tayyorlashda axborot texnologiyalardan foydalanish darajalarini o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga munosabatlarini o'rganish ilmiy pedagogik jihatdan tahlil qilish;

2. Bo'lajak mutaxassis-talabalarning fanlardan ma'lumotlarni olish va mutaxassisligi bo'yicha fanlarni o'qishda bugungi kun talablaridan kelib chiqib qaysi vosita yoki usul qulayligi to'g'risida ularning fikrlarini anketa so'rovnomasi orqali o'rganish kabi vazifalar qo'yildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan 5112000-Jismoniy madaniyat bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablarining ikkinchi bob ikkinchi bo‘limida ushbu yo‘nalish bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga bo‘limlar bo‘yicha malaka talablari qo‘yilgan. Ushbu bo‘limlarning deyarli barchasida raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, globallasuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini oqilona tanlay olish, ijodiy yondoshuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta’minlash qobiliyatlariga ega bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Shularga asoslangan holda biz Jizzax davlat pedagogika instituti va Guliston davlat universiteti jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishining yuqori kurslarida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislardan bugungi kunda kasbiy bilimlarni egallashda qanday vositalar va usullar qulayligini anketa savolnomasi orqali o‘rgandik.

Axborot olish va o‘zaro almashish, ma’lumotlarni yig‘ish manbalari sifatida biz bo‘lajak mutaxassislarga jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ma’lumotlarni olish va mutaxassisligi bo‘yicha fanlarni o‘qishda ular uchun qaysi vosita qulayligini o‘rgandik (1-diagramma).

*1-diagramma*




Diagrammadan ko‘rinib turibdiki Jizzax Davlat pedagogika instituti talabalardan 24,7%, Guliston Davlat universiteti talabalarining 29,5% axborot resurs markazidan o‘z sohalari bo‘yicha ma‘lumotlarni olishda va fanlardan bilimlarini oshirishda foydalanar ekanlar. Albatta bugugi kunda xar bir OTM axborot resurs markazida yaratilgan sharoitlarni xolati, ta‘lim yo‘nalishlari kesimida mavjud o‘quv adabiyotlarini bugungi kun talabidan kelib chiqib shakllantirilganligini ham e‘tiborga olish lozim.

Axborot texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi ushbu sohada ham katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Mobil telefonlardan faqat aloqa vositasi sifatida foydalanilgan bo‘lsa, hozirda turli operatsion tizimli smartfonlar kompiyuter bajaradigan ishlarni deyarli xammasini amalga oshirmoqda. Shu sababli respondentlardan JDPI 54,5%, GulDU 52,6% mobil telefonlar orqali, shaxsiy kompyuterda esa, JDPI 20,8%, GulDU 17,9% ishlashni afzal ko‘rishar ekan.


Bundan bir necha yil oldin internetdan foydalanish uchun faqatgina shaxsiy kompyuterlardan foydalanilar edi. Bugungi kunda esa internet foydalanuvchilarining aksariyati mobil telefonlari orqali foydalanayotgani bizga ma‘lum. Ushbu masalada yoshlarni bergan ma‘lumotlari ham fikrimizga yaqqol isbot bo‘ldi. Internetdan foydalanish uchun ko‘proq shaxsiy kompiyuterdanmi yoki mobil telefondan foydalanishlarini o‘rgandik (2-diagramma).

*2-diagramma*




Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda bugungi kunning yoshlari, bo'lajak mutaxassislarimizning hayotlariga mobil telefonlar borgan sari kirib bormoqda. Albatta buning uchun zarur me'yoriy-xuquqiy xujjatlar xam ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy smartfonlar uchun zaruriy dasturiy vositalar ishlab chiqishdan oldin talabalarning shu rusmdagi mobil telefonlari bilan ta'minlanganlik darajasini o'rgandik (3-diagramma). Xozirda talaba yoshlarimizning aksariyati ya'ni JDPI 92,2%, GulDU 91,0% zamonaviy operatsion tizimga ega bo'lgan mobil telefonlardan foydalanishlarini ma'lum qilishdi.

*3-diagramma*



Bugun mobil qurilmalar hayotimizda alohida ahamiyatga ega. Turli sohalarida va biznes vazifalar uchun har bir foydalanuvchi smartfon yoki planshetlardan foydalanadi. Bunday qurilmalardan ta'lim olish va bilimni boyitish uchun zarur dasturiy mahsulotlar kerak bo'ladi. Yoshlarimizdan shunday dasturiy ta'minot, mobil ilovalar haqida tushunchaga egaliklarini bilish va ulardan foydalanishlarini o'rganish maqsadidagi so'rovimizga quyidagicha javoblarni oldik. JDPI 45,5%, GulDU 53,8% bo'lajak mutaxassislarimiz mobil ilovalar xaqida to'liq tushunchaga ega ekanliklarini bildirishdi. Qisman deb JDPI 50,6%, GulDU 41,0% javob berishgan. Yetarli darajada tushunchaga ega emasliklarini va kam foydalanishlarini JDPI 3,9%, GulDU 5,1% yuqori kurs talabalari ma'lum qilishgan (4-diagramma).

*4-diagramma*



**Xulosa.** Yuqoridagi tahlilimizdan xulosa qilishimiz mumkinki bugungi kundagi bo‘lajak yosh kadrlarimiz AKTni jumladan, zamonaviy mobil qurilmalarni juda yaxshi o‘zlashtirib olganligini inobatga olib, o‘z bilimlarini kasbiy malaka va mahoratlarini oshirish uchun vosita sifatida foydalanishimizni jamiyatning o‘zi taqazo etmoqda.

Turli texnik muammolarga tayangan holda, mobil qurilmalarni qo‘llash insonning shaxsiy hayoti va shaxsiy havfsizligida negativ aks etishi mumkin. Mavjud kamchilik va chegaralashlarga qaramay, mobil texnologiyalar tez tarqalmoqda va kelajakda eng samarali o‘qitish metodlaridan biri bo‘lishi mumkin. Mobil ilovalar bugungi kun talablaridan kelib chiqib qiziqarli, to‘g‘ri va aniq ishlab chiqilishi o‘qitishning samarasiga va bo‘lajak mutaxassislar o‘z bilimlarini, kasbiy malaka va mahoratlarini oshirishga olib kelishi mumkin. Talabalarga bilim berishda mobil ilovalardan foydalanish g‘oyasini amalga oshirishining ko‘pgina aspektlari mavjud. O‘z oldimizda to‘g‘ri maqsad qo‘yib, barcha afzal va kamchilik tomonlarini ko‘rib chiqib, zamonaviy ta‘lim jarayoni sifatini oshirish uchun mustahkam baza yaratish mumkin, ya‘ni zamon bilan hamnafas bo‘lishdir.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi





Prezidentning PF-5847-son Farmoni // 2019-yil 8-oktabr. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi axborot tizimi «LexUZ».

2. Ахмедов Ф. К., Абдулахатов А. Р., Ахмедов Ф. Ш. Competitive activity analysis for the skilled judo athletes by weight categories // Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта. – 2020. – №. 5. – С. 37-42.

3. Axmedov F. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy madaniyat darslari (O‘quv-uslubiy qo‘llanma) // Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.

4. Доскажанов Ч.Т., Даненова Г.Т., Коккоз М.М. Роль мобильных приложений в системе образования // Международный журнал экспериментального образования. – 2018. – № 2. – С. 17-22;

5. Камалов Р.Р. Реализация мобильного обучения на самостоятельных занятиях физической культурой в вузе / Р.Р. Камалов, К.А. Касаткин, Р.С. Наговицын // Вестник развития науки и образования. - 2013. -№ 5. - С. 162-168.

6. Olimov A. Jismoniy madaniyat o‘qituvchisining kasbiy tayergarligi jara’ida mobil o‘qitishning afzalliklari // Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.

7. Olimov A. 2 COURSE STUDENTS PHYSICAL CULTURE THEORY AND METHODOLOGY INDICATORS // Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.